

IZOHLI LUG'ATLARDA AKS ETGAN LEKSIK BIRLIKLARNING DIALEKTAL QATLAM

Chirchiq davlat pedagogika

Universiteti

Boshlang'ich ta'lim nazriyasi va amaliyoti kafedrası

o'qituvchisi

Haydarova Gulruh Muhammadaminovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek tilining izohli lug'atida berilgan so'zlarning talqinida dialektal birliklarning ifodalanishi, shartnoma adabiy til bilan o'zaro munosabati hamda talqin jarayonidagi xulosalar tahlili. Dialektal so'zlarning izohli lug'atga kiritilishi mezonlari, hujjat semantik tafovutlari va kontekstual qo'llanish xususiyatlari o'rganiladi. hududiy lahjalar asosida shakllangan leksemalarning adabiy til leksikasi bilan integratsiyasi, bu jarayondagi lingvistik va leksikografik muammolar yoritiladi.

Kalit so'zlar: leksema, dialektizm, adabiy til, ishlatilish doirasi, dialektizm-leksema, dialektizm-semema.

ДИАЛЕКТНЫЙ СЛОЙ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, ПРЕДСТАВЛЕННЫХ В ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ

**Чирчикский государственный педагогический
университет**

Преподаватель кафедры Теории и практики начального образования

Хайдарова Гулрух Мухаммадаминовна

Аннотация: В данной статье анализируется отражение диалектных единиц в толковании слов, представленных в толковом словаре узбекского языка, а также их соотношение с литературным языком и выводы, сделанные в процессе интерпретации. Рассматриваются критерии включения диалектных слов в толковый словарь, семантические различия в документах и особенности их контекстуального употребления. Освещаются вопросы интеграции лексем, сформированных на основе региональных диалектов, в лексику литературного языка, а также лингвистические и лексикографические проблемы этого процесса.

Ключевые слова: лексема, диалектизм, литературный язык, сфера употребления, диалектизм-лексема, диалектизм-семема.

The Dialectal Layer of Lexical Units Reflected in Explanatory Dictionaries

Chirchik State Pedagogical University

Lecturer at the Department of Theory and Practice of Primary Education

Haydarova Gulruh Mukhammadaminovna

Abstract: This article analyzes the representation of dialectal units in the interpretation of words included in the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language, as well as their correlation with the literary language and the conclusions drawn during the interpretive process. The study explores the criteria for including dialectal words in the dictionary, semantic differences in official documents, and features of their contextual usage. It also highlights the integration of lexemes formed on the basis of regional dialects into the lexicon of the literary language and addresses the linguistic and lexicographic challenges involved in this process.

Keywords: lexeme, dialectism, literary language, usage domain, dialectism-lexeme, dialectism-sememe.

Bizga ma'lumki, leksemalar ishlatilishi doirasi jihatidan avvalo ikkiga guruhlanadi: ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlam va ishlatilish doirasi chegaralangan qatlam kabi guruhlarga ajratiladi.

Ishlatilish chegarasi chegaralanmagan qatlamni barcha o'zbeklar uchun umumiy bo'lgan leksemalar tashkil etadi. Ushbu qatlamdagi leksemalar, yashash joyi, kasbi, madaniy saviyasi, jinsi, yoshi va boshqa ijtimoiy belgilaridan qat'iy nazar, o'zbekcha gapiradigan har bir kishining nutqida ishlatilish mumkin, o'zbek tilida gapiruvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'ladi. O'z-o'zidan, bunday leksemalar turmushimizda zarur bo'ladigan narsa-buyum, belgi-xususiyat kabilarning nomi bo'lishi mumkin.

Dialektlarga ko'ra voqe bo'ladigan ba'zi fonetik ayirmalarni hisobga olmaganda (chunki bu leksemalar adabiy tilda yagona talaffuz me'yoriga bo'ysunadi), ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlamga *ko'z-*, *qo'l-*, *oyoq-*, *bilak-*, *tirsak-*, *yaxshi-*, *yomon-*, *qora-*, *sariq-*, *ko'k-*, *kel-*, *ket-*, *o'tir-*, *tur-*, *yur-*, *tez-*, *sekin-*, *erta-*, *kech-* kabi ko'p misol va namunalar keltirish mumkin.

Ishlatilish territoriyasiga ko'ra chegaralangan til hodisalari *dialektizmlar* deb ataladi (yunoncha *dialektos* – tilning mahalliy ko'rinishi).

Dialekt so'zi yunoncha so'z bo'lib, *sheva* degan ma'noni anglatadi (aslida qabila tili demakdir), ayrim til xususiyatlari bir-biriga o'xshash bo'lgan shevalarni birlashtiradi.

O'zbek dialektologiyasi sheva va lahjalarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, ularning shakllanish va tarqalish chegaralarini o'rganadi.[1. 26]

Ma'lumki, shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy - ma'naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Dialektizm – umumiy tilga emas, balki shu umumtilning mahalliy ko'rinishlari bo'lgan dialektlarga xos hodisa; shunga ko'ra bular odatda biror dialektlarning vakillari nutqida ishlatilib, ko'pincha boshqa dialektlarning vakillariga, shuningdek adabiy tilga ham xos bo'lmaydi.

Dialektizm asosan uch xil bo'ladi:

1. Lug'aviy dialektizm – lug'aviy birliklardagi turi.

2. Grammatik dialektizm – grammatik hodisalardagi turi (masalan, ba’zi dialektlardagi o’rin ma’nosi uchun *-ga*, aksincha, jo’nalish ma’nosi uchun esa *-da* ishlatilish o’rinlari uchraydi).

3. Fonetik dialektizm – tovush talaffuzi va tovush o’zgarishiga bog’liq turi (masalan, ovoz tovushlarining ba’zi dialektlarda cho’ziqroq va yumshoqroq talaffuz qilinishi, ayrim dialektlarda bir tovush o’rniga boshqa tovushning ishlatilishi va boshqa shu kabilar).

Aslida adabiy til lug’atining bir qismi avval dialektlarniki bo’lib, adabiy tilga xos deb qaralishi, bunday leksemaning umumlashib ketishiga olib kelgan edi.

Dialektizm umumtil lug’at boyligining nisbatan oz miqdorini tashkil etadi. Shu oz miqdordagi leksemalardan ham adabiy tilga tanlab kiritiladi. Biz yuqorida bunga yaqqol misollarni ko’rib chiqqanmiz. Dialektizmning umumtil boyligiga aylanishiga esa ma’lum shart-sharoitga bog’liqdir. Masalan, shu dialektizm anglatgan ma’no uchun adabiy tilda boshqa nom bo’lmasligi zarur; agar adabiy tilde shunday ma’no ifodalovchi leksema bo’lsa, yangi kiritilayotgan leksema leksik ma’no qirrasida, baho semasida, nutq ko’rinishlariga xoslanish belgisida va boshqa jihatlarida ayrimlikka (ajralib turuvchi jihatga) ega bo’lishi kerak.

Masalan, sevimli adibimiz Abdulla Qahhor o’z povestini (“Sinchalak”) dialektizm bilan atadi, bu leksemani asar matnida ham ishlatdi. Lekin shu bilan *sinchalak* leksemasi adabiy til lug’atidan joy oldi deyolmaymiz, albatta (Adabiy tilda shu ma’no *chittak* leksemasi bilan ataladi). Demak, yozuvchi dialektizmni badiiy asar matniga olib kirar ekan, bunday leksemaning adabiy til lug’aviy birligiga aylanishi esa til amaliyotiga bog’liq.

Dialektidagi leksema adabiy tildagi leksemadan ko’pincha tovush jihati bilan farq qiladi: ayni bir leksema adabiy tilda va dialektlarda har xil talaffuz qilinadi. Misol uchun: *kangul* – *ko’ngul* – *ko’ngil*, *oka* – *aka*-, *jur* – *yur*, *gal* – *kel*, *bala* – *bola*, *turpoq* – *tuproq* kabilarni olsak bo’ladi. Bu kabilar tilning mahalliy ko’rinishlariga xos bir necha leksema emas, balki umumtilda bor bir

leksemalarning turlicha talaffuzi, shunga ko'ra bunday farqlanishlar leksik dialektizm deb atalmaydi.

Leksik dialektizm ikki turli bo'ladi:

- 1) dialektizm- leksema;
- 2) dialektizm- semema.

Faqat shu dialektdagina ishlatilib, adabiy tilda yo'q bo'lsa, *dialektizm-leksema* deyiladi. Bunday leksema lug'aviy birlik sifatida adabiy til uchun bus-butun yangi, noma'lum bo'ladi. Masalan, *xamak-*, *sapcha-*, *balacha-*, *tugunak-(tuynak-)* leksemalaridan har biri boshqa-boshqa dialektniki, bulardan birontasi ham adabiy tilga kiritilmagan. Hozirgacha har bir hududda shu predmet o'z leksemasi bilan anglatiladi.

Xuddi shuningdek, holat *narvon-*, *shoti-*, *zangi-* leksemalariga ham xosdir. Ammo bu misollardagi birinchi so'z, har holda, adabiy tilga olingan deb qaraladi. Bundan kelib chiqadiki, dialektlardan biriniki bo'lgan leksema adabiy tilga xos leksemaga aylanadi, qolganlari esa dialektizmligicha qolaveradi.

Dialektlarga ko'ra ba'zan leksemalarning ma'no hajmida farq ham mavjud bo'ladi. Buni dialektizm-sememaning bir ko'rinishi deb baholash mumkin. Masalan, ba'zi dialektlarda meva turlaridan birining ho'li ham qurug'i ham *o'rik* deb atalaveradi, boshqa bir dialektda esa *o'rik* deb faqat ho'l mevaga aytiladi, qurug'i esa *turshak* deb nomlanadi. Bundan ko'rinadiki, *o'rik* leksemasining ma'no hajmi bir dialektda keng, boshqa dialektda esa tor ma'noda qo'llanadi.

Dovushlamoq *shv.* Qichqirmoq, tovush chiqarmoq; chaqirmoq. – *To'xta, zolim!*

- *dedi ham dovushladi.* “Erali va Sherali”

Jalanglamoq *shv.* Hayron bo'lib, alanglab qaramoq. *Sherbek o'zini yo'qotib qo'ydi. O'tirganlarga savol nazari bilan jalanglab boqdi.* S.Anorboyev, Oqsoy. *Patma ko'l tepasidagi tegirmonga yetib kelganida, xavotirda atrofga jalanglab turgan Eminxojiga ko'zi tushdi.* T.Ashurov, Marvarid tut.

Mana yuqoridagi me'yorlarga ko'ra izohli lug'atga tanlab olingan shevaga xos leksemalar tizimi bilan tanishib oldik. Bu kabi misollardan ko'rinib turibdiki,

shevaga xos soʻzlarning lugʻatga qabul qilishi uchun asos boʻladigan manbalarning yetarli boʻlganligidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. Toshkent. Navroʻz-2016.
2. 1.Ruhiy holatni ifodalovchi soʻzlarning etimologiyasi. Young academic. 2022. № 2.
3. Haydarova, G. (2023). Oʻzbek tili taraqqiyotida baynalmilal soʻzlarning ahamiyati. *UzMU xabarlari*, 1(4), 306-308.